HANAFIYLAR VA MUHADDISLAR NAZDIDA HADISLARNING TAQSIMOTI

Teshayev Maxmud Mamurovich
Buxoro Davlat Universiteti
Islomshunoslik yo'nalishi magistranti
E-mail: teshaev4774@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23762760

Annotatsiya. Mazkur maqolada hanafiy usulchilari va muhaddislar nazarida hadislarning roviylar soniga ko'ra taqsimlanishi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda mutavotir, mashhur va ohod hadislarning ta'rifi, turlari hamda huquqiy-ma'rifiy maqomi yoritilgan. Shuningdek, muhaddislar mashhur hadisni ohod tarkibida baholashlari, hanafiylar esa uni mutavotir va ohod o'rtasidagi mustaqil daraja sifatida ko'rishlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Maqolada mashhur hadisning Qur'on hukmini taxsis qilishi, uning ilm ifoda qilish darajasi va inkorining hukmiga doir masalalar ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida hadis tasnifidagi usuliy farqlar fiqhiy va aqidaviy natijalarga ega ekani xulosasi chiqarilgan.
Kalit so'zlar: mutavotir hadis, mashhur hadis, ohod hadis, hanafiylar, muhaddislar, usul al-fiqh, hadis ilmi, taxsis.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ классификации хадисов по количеству передатчиков в понимании ханафитских усулистов и мухаддисов. В исследовании рассматриваются определения, виды и научно-правовой статус мутаватир, машхур и ахад хадисов. Особое внимание уделяется различию между подходами мухаддисов, считающих машхур частью ахад-хадисов, и ханафитов, рассматривающих его как самостоятельную категорию между мутаватир и ахад. Также анализируются вопросы специализации коранических предписаний посредством машхур хадиса, степень его доказательной силы и правовой статус отрицания подобных сообщений. В результате исследования сделан вывод о том, что различия в классификации хадисов имеют не только терминологический, но и богословско-правовой характер.
Ключевые слова: мутаватир хадис, машхур хадис, ахад хадис, ханафиты, мухаддисы, усуль аль-фикх, хадисоведение, тахсис.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the classification of hadiths according to the number of narrators from the perspectives of Hanafi jurists and hadith scholars. The study examines the definitions, categories, and epistemological as well as legal status of mutawatir, mashhur, and ahad hadiths. Particular attention is given to the difference between the muhaddithun, who regard mashhur as a subtype of ahad reports, and the Hanafis, who consider it an independent category situated between mutawatir and ahad. The article also discusses the role of mashhur hadith in specifying Qur'anic rulings, its epistemic value, and the legal implications of rejecting such reports. The research concludes that the differences in hadith classification are not merely terminological, but also carry important juridical and theological consequences.

Keywords: mutawatir hadith, mashhur hadith, ahad hadith, Hanafis, muhaddithun, usul al-fiqh, hadith studies, takhsis.

Kirish. Islom huquqi metodologiyasida hadis tasnifi masalasi faqat nazariy ahamiyat kasb etib qolmay, balki fiqhiy hukm chiqarishda ham bevosita amaliy natijalar beradi. Hadislarni roviylar soniga ko'ra taqsimlash an'anasi islom ilmiy tafakkurida ilk asrlardan boshlab shakllangan bo'lsa-da, bu masalada hanafiy usulchilari va muhaddislar maktabi o'rtasida sezilarli metodologik tafovutlar mavjud bo'lib kelgan. Ushbu tafovutlar ayrim tadqiqotchilar tomonidan hamon noto'g'ri talqin qilinmoqda yoki e'tibordan chetda qolmoqda.

Masalaning mohiyati shundan iboratki, muhaddislar xabarlarni asosan ikki toifaga — mutavotir va ohodga — ajratib, mashhur hadisni ohod turining ichiga kiritadilar. Hanafiy usulchilari esa mashhur hadisni mutavotir va ohod o'rtasidagi mustaqil daraja sifatida ko'rib, unga alohida huquqiy-epistemologik maqom beradi. Bu farq ko'rinishda istilohiy bo'lsa-da, amalda Qur'on hukmini taxsis qilish, ahkomi diniyaning dalil kuchi va inkor qilish hollarida qo'llaniladigan hukmlar kabi muhim masalalarda turli natijalarga olib keladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — hanafiy usulchilari va muhaddislar nazdida hadislarning roviylar soniga ko'ra taqsimotini qiyosiy tahlil qilish, ikki maktab o'rtasidagi metodologik asosiy farqlarni ilmiy dalillar asosida ko'rsatish va bu farqlarning fiqhiy hamda aqidaviy natijalarga qanday ta'sir etishini yoritishdir. Tadqiqotda birlamchi manba sifatida Bazdaviy, Nasafiy va Saraxsiyning usul al-fiqhga oid asarlari, shuningdek Ibn Hajar al-Asqaloniyning hadis metodologiyasiga doir ishlari asosiy tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Hadis ta’rifi

Lug‘aviy jihatdan “hadis” so‘zi “qadim”ning ziddi bo‘lib, “yangi” ma’nosini anglatadi. Shuningdek, u arab tilida “xabar” ma’nosida ham qo‘llanadi. “Lisan al-Arab” asarida: “Hadis — yangi narsadir, hadis — xabardir”, deb ta’rif berilgan. Istilohiy ma’noda esa hadis — Muhammad sollallohu alayhi va sallamga nisbat berilgan so‘z, amal, taqrir, xulqiy yoki jismoniy sifatlar, shuningdek, sahoba va tobeinlarga oid rivoyatlardir.[4, 37.b.]

Sunnat ta’rifi

Lug‘aviy jihatdan “sunnat” so‘zi odat, yo‘l va tutum ma’nolarini anglatadi. Bu yo‘l yaxshi ham, yomon ham bo‘lishi mumkin. Hadisda: “Kim Islomda yaxshi sunnat joriy etsa, unga o‘sha sunnatning savobi va undan keyin amal qilganlarning savobi yoziladi. Kim yomon sunnat joriy etsa, unga uning gunohi va undan keyin amal qilganlarning gunohi yoziladi”, deb bayon qilingan.[2, 2398-hadis] Islomiy istilohda “sunnat” ko‘pincha Islom yo‘li va Payg‘ambar yo‘liga nisbatan qo‘llanadi. Shu bois “falonchi sunnat ustida” yoki “sunnat va bid’at” kabi iboralar keng ishlatiladi. Fiqh olimlari istilohida esa sunnat — uni ado etgan kishi savob oladigan, tark etgan kishi esa gunohkor bo‘lmaydigan amalni anglatadi. [4, 38.b.]

Muhaddislar istilohida sunnat hadis bilan ma’nodosh hisoblanadi. Biroq “hadis” atamasi ko‘proq hadis ilmi mutaxassislari tomonidan, “sunnat” esa usul al-fiqh olimlari tomonidan keng qo‘llanadi. Usulchilarga ko‘ra, sunnat — Muhammad sollallohu alayhi va sallamga nisbat berilgan so‘z, amal va taqrirlardan iboratdir. Ular sunnatni tashri’ manbai sifatida o‘rganganlari sababli, asosan hukm chiqarishga asos bo‘luvchi jihatlarga e’tibor qaratadilar. [4, 38.b.]

Xabar ta’rifi.

“Xabar” tushunchasi haqida ulamolar turlicha fikr bildirganlar. Ayrim olimlar uni hadis bilan sinonim deb hisoblaganlar. Boshqa bir guruh esa hadis va xabar o‘rtasida farq mavjudligini ta’kidlab, hadisni Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qilingan ma’lumotlar, xabarni esa boshqalardan yetkazilgan rivoyatlar deb izohlaganlar. Shu sababli tarix va rivoyatlar bilan shug‘ullanuvchi kishilar “axboriy”, hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchilar esa “muhaddis” deb atalgan. Yana bir qarashga ko‘ra, “xabar” tushunchasi “hadis”dan kengroq bo‘lib, u Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan ham, boshqa shaxslardan ham rivoyat qilingan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.[5, 94.b.]

Asar ta’rifi.

“Asar” istilohi haqida ham turli qarashlar mavjud. Ayrim muhaddislar uni hadis bilan ma’nodosh deb bilganlar. Xuroson fiqh ulamolari esa “asar” atamasini sahobalarda to‘xtagan rivoyatlar — ya’ni mavquf hadislar uchun qo‘llab, marfu’ hadislarni “xabar” deb ataganlar.

Xulosa qilib aytganda, hadis, sunnat, xabar va asar istilohlari ayrim hollarda bir ma’noda qo‘llansa, boshqa hollarda ularning har biri alohida istilohiy mazmunni ifodalaydi. Bu esa hadis ilmi va usulul fiqhda mazkur tushunchalarning qo‘llanish doirasi hamda ilmiy yondashuviga bog‘liqdir. [4, 38-39.b.]

Hanafiylar va muhaddislar nazdida xabarlarning taqsimlanishi.

Hanafiy ulamolar xabarlarni sanadlarining ko‘pligi yoki kamligi jihatidan uch qismga ajratadilar: mutavotir, mashhur va ohod hadislar. Muhaddislar nazarida esa xabarlar roviylar soniga ko‘ra ikki asosiy turga bo‘linadi: mutavotir va ohod. O‘z navbatida, ohod xabarlar uch qismni tashkil etadi: mashhur, aziz va g‘arib hadislar.

Mazkur ikki taqsimot o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, hanafiylar nazarida mashhur hadis ohod xabarga qasiym (ya’ni unga parallel va teng darajadagi mustaqil toifa) sifatida qaralib, mutavotir va ohod o‘rtasida oraliq maqomni egallaydi. Ya’ni u, ma’lum jihatdan, mustaqil toifa sifatida baholanadi. Muhaddislar qarashiga ko‘ra esa mashhur hadis ohod xabarlarning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ularning umumiy hukmiga bo‘ysunadi.

Muhaddislarning taqsimoti. Muhaddislar taqsimotiga binoan, xabar bizgacha yetib kelish yo‘llarining soniga qarab quyidagi shakllarda bo‘ladi: u cheklanmagan ko‘p sonli sanadlar orqali kelishi mumkin yoki ma’lum miqdor bilan cheklangan yo‘llar orqali yetib keladi. Agar xabar cheklanmagan ko‘plab sanadlar orqali rivoyat qilingan bo‘lsa, u mutavotir hisoblanadi. Aksincha, sanadlar soni cheklangan bo‘lsa, bunday xabarlar ohod turiga kiradi. Ohod xabarlar esa o‘z navbatida mashhur (uch va undan ortiq roviy orqali rivoyat qilingan), aziz (kamida ikki roviy orqali rivoyat qilingan) va g‘arib (bitta roviy orqali rivoyat qilingan) qismlarga bo‘linadi.[6, 43.b]

Mutavotir hadis. Lug‘aviy jihatdan “mutavotir” so‘zi “ketma-ket kelish”, “bir-biriga ulanib borish” ma‘nolarini anglatadi. Masalan, odamlarning paydar-pay kelishi holati arab tilida “tavatara al-qavm” iborasi bilan ifodalanadi.

Hadis ilmi istilohida esa mutavotir — sanadning barcha tabaqalarida yolg‘onga kelishib olishlari aqlan mumkin bo‘lmagan darajadagi ko‘p sonli roviylar guruhi o‘zlariga o‘xshash boshqa bir jamoatdan rivoyat qilgan xabardir. Bunday xabarlarning asosida hissiy — ya‘ni bevosita ko‘rish yoki eshitish orqali idrok etilgan — dalil yotadi. Shuningdek, mutavotir xabar tinglovchi uchun zaruriy va qat‘iy bilim (ilm al-yaqiyn) hosil qilish xususiyatiga egadir.[6, 44.b.]

Agar rivoyat bunday yaqiniy bilimni ifoda etish darajasiga yetmasa, u mutavotir emas, balki mashhur darajasida baholanadi. Shu bois, har bir mutavotir xabarni mashhur deyish mumkin bo‘lsa-da, har bir mashhur xabar mutavotir darajasiga ko‘tarilmaydi.

Mutavotirlik uchun roviylarning aniq bir son mezoniga murojaat qilinmaydi. Chunki bu yerda asosiy o‘lchov — roviylarning yolg‘onga kelishib olishlari aqlan imkonsiz bo‘lgan darajaga yetishidir. Demak, asosiy e‘tibor xabarning rostligini zaruriy ilm darajasida isbotlashiga qaratiladi.

Shuningdek, mutavotirlik sanadning barcha tabaqalarida uzluksiz mavjud bo‘lishi shart. Agar sanadning biror tabaqasida rivoyat yakka shaxs orqali kelib, keyingi tabaqalarda ko‘plab roviylar orqali tarqalgan bo‘lsa, bunday xabar mutavotir hisoblanmaydi. Bundan tashqari, xabar faqat aqliy mulohazalarga emas, balki bevosita guvohlik (ko‘rish yoki eshitish) asosida rivoyat qilingan bo‘lishi lozim.

Mutavotir hadisning hukmi

Mutavotir hadis o‘zining sahihligiga nisbatan yaqiniy ilmni ifoda etadi va uning mazmuni Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga qat‘iy nisbat berilishini ta‘minlaydi. Shu sababli, kim mutavotir hadisni asossiz ravishda inkor etsa, ulamolar nazarida bu holat e‘tiqodiy jihatdan jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lib, ayrim hollarda bunday inkor kufrga olib boruvchi amal sifatida baholanadi. Biroq bu masalada hukm berish tafsilot va shartlarga bog‘liq ekani alohida ta‘kidlanishi lozim.

Yaqiyn — bir narsaning haqiqatiga hech qanday shubha aralashmagan holda qat‘iy va to‘liq ishonch hosil qilishdir. Ilm zaruriy (bevosita, darhol hosil bo‘ladigan bilim) bilan ilm nazariy (fikrlash va dalillash orqali hosil bo‘ladigan bilim) o‘rtasidagi farq shundan iboratki, zaruriy ilm hech qanday istidlol talab qilmasdan darhol bilimni hosil qiladi. Nazariy ilm esa dalillash va nazariy mushohada orqali amalga oshadi. Bundan tashqari, zaruriy ilm har bir eshituvchida hosil bo‘ladi, nazariy ilm esa faqat tahlil yuritish qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilarda shakllanadi.[6, 44.b]

Mutavotir xabar shu xususiyatga ko‘ra isnod ilmining bevosita tadqiqot doirasiga kirmaydi. Chunki isnod ilmi hadisning sahih yoki zaif ekanligini aniqlash, unga amal qilish yoki uni tark etish masalalarini roviylarning sifati va rivoyat qilish uslublari (siyg’a al-ada) nuqtai nazaridan o‘rganadi. Mutavotir hadisda esa roviylarni tekshirish talab etilmaydi; aksincha, u haqida izlanishsiz ham darhol amal qilish vojib hisoblanadi.

Mutavotirning turlari

Lafziy mutavotir. Barcha roviylar tomonidan bir xil lafz bilan rivoyat qilingan hadisga lafziy mutavotir deyiladi. Misol: Sahih Muslimda Mug‘ira ibn Shu‘badan rivoyat qilinishicha, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam shunday deganlar: “**Kim menga ataylab yolg‘on to‘qisa, do’zaxdagi o‘rnini hozirlab qo‘ysin.**”[2, 5-6 hadis] Bu hadis ayni shu lafz bilan yetmishdan ortiq sahoba tomonidan rivoyat qilingan. Uni jannat bashorati berilgan o‘n sahoba ham rivoyat qilgan. Muhaddislar ta‘kidlashicha, barcha asharai mubashshara tomonidan rivoyat qilingan boshqa hadis ma‘lum emas.

Ma‘naviy mutavotir. Turli voqealar haqida rivoyat qiluvchi bir guruh roviylarning rivoyatlarida mushtarak bir ma‘no mavjud bo‘lsa, o‘sha umumiy ma‘no ma‘naviy mutavotir hisoblanadi. Misol: Duo vaqtida qo‘llarni ko‘tarish haqida Rasulullоh sollallohu alayhi va

sallamdan yuzga yaqin hadis turli holatlar munosabati bilan rivoyat qilingan. Ushbu rivoyatlarning barchasidagi mushtarak ma‘no — duo paytida qo‘l ko‘tarishdir. Ana shu ma‘nodagi uyg‘unlik ma‘naviy tavotur deb ataladi. Lafziy mutavotir hadislar hadis ilmida kamdan-kam uchraydi, ma‘naviy mutavotir esa nisbatan ko‘p uchraydi.[5, 96.b.]

2. Ohod hadislar

“Xabarul-vohid” lug‘atda bir kishi rivoyat qilgan xabar ma‘nosini bildiradi. Istilohda esa mutavotir hadis shartlariga javob bermaydigan har qanday hadis ohod hadis deb yuritiladi.

Ohod hadislar uch turga bo‘linadi:

a) Mashhur hadis

Roviylari ikkitadan ko‘p bo‘lgan, ammo mutavotir darajasiga yetmagan hadis mashhur hadis deyiladi. “Mashhur” deb atalishining sababi uning keng tarqalganligidir.

Ba‘zi faqihlar uni mustafiz bilan sinonim sifatida ishlatganlar. Ayrim ulamolar esa ularning orasini farqlab, mustafiz hadisning sanad boshidan oxirigacha bir xil miqdorda tarqalishini, mashhurning esa bundan umumiyroq ekanini ta‘kidlaydilar.

Misol: Sahih al-Buxoriy va Sahih Muslimda Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilinishicha, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam: “**Sizlardan biringiz juma namoziga kelsa, g‘usl qilsin**”, — deganlar.[1, 886-hadis] Bu hadisni Abdulloh ibn Umar, Umar ibn Xattob, Abu Sa’id al-Xudriy va Abu Hurayra rivoyat qilganlar. Ibn Umardan esa Nofe’, uning o‘g‘illari Solim va Abdulloh rivoyat qilgan. Keyingi tabaqalarda ham roviylari ko‘paygan, biroq mutavotir darajasiga yetmagan.

Lug‘aviy ma‘noda mashhur hadis turli muhitlarda keng tarqalgan hadislarga ham nisbatan qo‘llanadi. Shu jihatdan u quyidagi turlarga bo‘linadi:

Muhaddislar orasida mashhur hadis. Misol: Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning bir oy davomida Ri’l, Zakvon va Banu Lihyon qabilalariga qarshi duo qilganlari haqidagi hadis.[1, 3102-hadis]

Muhaddislar, ulamolar va oddiy xalq orasida mashhur hadis. Misol: Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning: “Musulmon — boshqa musulmonlar uning tili va qo‘lidan omonda bo‘lgan kishidir”, degan hadislari.[1, 10-hadis.]

Faqihlar orasida mashhur hadis. Misol: “Alloh huzurida halol narsalarning eng yoqimsizi taloqdir.”[3, 2179-2180-hadis.]

Usul ulamolari orasida mashhur hadis. Misol: “Mening ummatimdan xato, unutish va majburlab qildirilgan ishlar kechirildi.”[11, 2122-2124-hadislar]

Oddiy xalq orasida mashhur hadis. Misol: “Kim bizni aldasa, bizdan emas.”[2, 294-hadis]

b) Aziz hadis

Sanadning barcha tabaqalarida roviylari ikkitadan kam bo‘lmagan hadis aziz hadis deyiladi. Uning “aziz” deb atalishining sababi — boshqa yo‘l bilan ham kelgani tufayli kuchli bo‘lishi yoki kam uchrashidir.

Misol: Sahih al-Buxoriy va Sahih Muslimda Anas ibn Molik va Abu Hurayradan rivoyat qilinishicha, Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Sizlardan biringiz men unga otasi, farzandi va barcha insonlardan ham suyukliroq bo‘lmagunimcha chin mo‘min bo‘la olmaydi”,

— deganlar.[2, 178-hadis.] Bu hadis sanadining barcha tabaqalarida kamida ikki roviy tomonidan rivoyat qilingan.

v) G‘arib hadis

Sanadning biror tabaqasida uni faqat bir roviy yolg‘iz rivoyat qilgan hadis g‘arib hadis deyiladi.[6, 50.b] “Fard” va “g‘arib” istiloh jihatdan sinonim sifatida ishlatiladi. Biroq muhaddislar amaliy qo‘llashda "fard"ni ko‘proq mutlaq yakka rivoyatga, “g‘arib”ni esa nisbiy yakka rivoyatga nisbatan ishlatadilar.

G‘arib hadis sanaddagi yolg‘izlik o‘rniga qarab ikki turga bo‘linadi:

Mutlaq fard. Sanadning aslida, ya‘ni hadisning tayanch nuqtasida bir roviy yolg‘iz qolgan hadisdir. Odatda bu sahobiydan hadis rivoyat qilgan tobein roviyining yolg‘izligi bilan namoyon bo‘ladi.[6, 56.b.]

Misol: Sahih Muslimda Abdulloh ibn Dinordan, u esa Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilgan hadisda Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam: “Valoni sotish ham, hadya qilish ham mumkin emas”, — deganlar.[2, 3861 hadis.] Imom Muslim bu hadis haqida: “Bu hadisda barcha odamlar Abdulloh ibn Dinorga tayanadilar”, — degan. Yana bir misol: Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning: “Iymon oltmishdan ortiq bo‘lakdir, hayo esa iymonning bir bo‘lagidir”, degan hadislari.[2, 161-hadis.] Bu hadisni Abu Solih Abu Hurayradan yolg‘iz rivoyat qilgan, Abdulloh ibn Dinor esa Abu Solihdan yolg‘iz rivoyat qilgan.

Nisbiy fard. Sanadning o‘rtalarida bir roviy hadisni yolg‘iz rivoyat qilgan hadis nisbiy fard deyiladi.[6, 57.b.] Masalan, hadisni sahobiydan bir nechta kishi rivoyat qiladi, keyin esa ulardan biridan uni faqat bitta roviy yolg‘iz rivoyat qiladi. Unga “nisbiy” deb nom berilishining sababi — undagi tafarrud mutlaq emas, balki muayyan bir roviyga nisbatan yuzaga kelganidir. Shuning uchun hadisning o‘zi mashhur bo‘lishi mumkin, ammo sanadning ma‘lum bir qismida tafarrud mavjud bo‘ladi.

Misol: Sahih al-Buxoriyda Abdulvohid ibn Ayman otasi Aymandan rivoyat qilib, Jobir ibn Abdulloh huzurlariga borib, Xandaq urushi voqeasiga oid hadisni keltirgani zikr qilinadi. Imom Buxoriy bu hadisni boshqa sanad bilan ham, ya‘ni Sa’id ibn Mino orqali Jobirdan rivoyat qilgan. [5, 99.b.] Demak, Ayman va Sa’id ikkalasi ham uni Jobirdan rivoyat qilganlar. Ammo Abdulvohid bu hadisni faqat otasi Aymandan yolg‘iz rivoyat qilgan. Shu sababli ushbu hadis nisbiy fard yoki g‘arib nisbiy deb ataladi. [4, 346.b.]

Muhaddislar nazdida ohod hadislarning hukmi

Ohod hadislarning barcha turlari muhaddislar nazarida zonniy ilmni, ya‘ni qat‘iy bo‘lmagan bilimni ifoda qiladi. Shunga qaramay, fiqhiy ahkomlar va aqidaviy masalalarda ularga amal qilish vojib hisoblanadi. Biroq ohod hadisni inkor qilgan kishi kofir bo‘lmaydi, chunki roviy tomonidan xato yuz berishi ehtimoli mavjud.

Ibn Hajar al-Asqaloniy ohod hadislarning ilm ifoda qilish darajasi haqida muhim tafsilotni bayon qilib, ularni ikki qismga ajratgan:

1. Qabul shartlari to‘liq mavjud bo‘lgan, biroq uni kuchaytiruvchi qo‘shimcha dalil va qarinalar bilan mustahkamlanmagan hadis. Bunday hadis zonnni ifoda qiladi.

2. Qabul shartlari to‘liq mavjud bo‘lishi bilan birga, uni xato ehtimolidan uzoqlashtiruvchi va kuchaytiruvchi qarinalar bilan qo‘llab-quvvatlangan hadis. Bunday hadis esa nazariy ilmni, ya‘ni dalil va istidlol asosida hosil bo‘ladigan bilimni ifoda qiladi.[6, 52.b.]

II. Hanafiylar taqsimotiga ko‘ra hadislar

Hanafiylar hadislarni Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga bog‘lanish (ittisol) jihatidan uch darajaga ajratadilar: to‘liq va shubhasiz bog‘lanish — mutavotir; shaklan shubha aralash bog‘lanish — mashhur; ham shakl, ham ma‘no jihatidan shubha mavjud bog‘lanish — ohod.

1. Mutavotir

Mutavotir — shunday xabarki, uni yolg‘onga kelishib olishlari tasavvur qilinmaydigan darajada ko‘p odamlar rivoyat qiladi va bu holat zanjirning barcha bosqichlarida davom etadi; ya‘ni uning oxiri avvali kabi, o‘rtasi ham ikki cheti kabi bo‘ladi. Imom Bazdaviy va Imom Nasafiy uni shu tarzda ta‘riflaydilar.[7, 353.b. 8, 140-141.b.] Abdulaziz al-Buxoriy va Ibn Malak esa qo‘shimcha qilib, rivoyatchilar eshitish kabi bevosita sezgi (hiss)ga tayanadigan aniq bilimga ega bo‘lishi kerakligini ta‘kidlaydilar, aqliy dalilga emas.[9, 61.b.] Bunga Qur‘onning naqli, besh vaqt namoz, rak’atlar soni, zakot miqdorlari va shunga o‘xshash masalalar misol bo‘la oladi.

Bu turdagi xabar qat‘iy yaqin ilmni (ilm al-yaqiyn darajasidagi zaruriy bilimni) hosil qiladi. Uni inkor qilgan kishi kofir hisoblanadi. [10, 81.b]

2. Mashhur

Mashhur — aslida ohod darajasida bo‘lgan, biroq keyinchalik keng tarqalib, uni yolg‘onga kelishib olishlari mumkin bo‘lmagan darajada ko‘p odamlar — ikkinchi va uchinchi asr avlodlari — rivoyat qilgan xabardir. [9, 63.b] U “mashhur” yoki “mustafiz” deb ham ataladi. “Shuhra” so‘zi “aniq bo‘lish” ma‘nosidan olingan; xuddi qilichni “shahr” qilish — ya‘ni sug‘urib olish — kabi. Bu tur Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamga bog‘lanish jihatidan ikkinchi darajani tashkil etadi: unda shaklan shubha bor, lekin ma‘no jihatidan yo‘q. Chunki u birinchi asrda ohod bo‘lgan, keyingi asrlarda esa ummat tomonidan qabul qilinib keng tarqalgan. Ulamolar uni adolat va diniy qat‘iyat bilan qabul qilganliklari sababli mashhur mutavotir maqomiga yaqinlashadi. Mashhurlikda e‘tibor ikkinchi va uchinchi asrlarga qaratiladi; keyingi asrlarda tarqalgan rivoyatlar esa bu sifatga ega bo‘lmaydi.

Mutavotir va mashhur o‘rtasidagi farq

Mutavotir — har uch avlodda ham boshidan oxirigacha uzluksiz mutavotir yo‘l bilan keladi. Mashhur — birinchi halqada (sahobalar davrida) mutavotirlik yo‘q, keyingi ikki halqada esa mavjud.

Muhaddislar mashhur hadisni ohod turlaridan biri deb hisoblaydilar. Hanafiylar esa uni mutavotir va ohod o‘rtasida mustaqil daraja deb e‘tirof etadilar. Ba‘zi usul ulamolari, xususan al-Jassos, xabarlarni faqat ikki turga — mutavotir va ohodga bo‘ladi va mashhurni mutavotirning bir ko‘rinishi deb qaraydi. [7, 357.b.]

Hanafiylar nazdida mashhur hadisning hukmi

Hanafiylar orasida bu borada ikki qarash mavjud. Jassos va bir guruh ulamolarning fikricha, mashhur hadis mutavotir kabi qat‘iy ilm beradi, biroq istidlol orqali. Aksar hanafiylar (Iso ibn Abon va boshqalar) esa u faqat “ilm al-ṭuma’nina” — qalbni xotirjam qiluvchi kuchli gumon darajasidagi bilimni hosil qiladi, deb hisoblaydilar. [7, 359.b.]

Iso ibn Abonning bu boradagi dalili shundan iboratki: agar biror narsa qat'iy va yaqin ilmni vojib qiladigan bo'lsa, uni inkor etgan kishi kofir bo'ladi. Xuddi zaruriy ravishda ilmni vojib qiladigan mutavotir xabar kabi. Mashhur xabarni inkor qilgan kishi esa ittifoq bilan kofir deb hisoblanmaydi. Shundan ma'lum bo'ldiki, mashhur xabar orqali sobit bo'ladigan narsa "ilmul-yaqin" emas, balki qalb xotirjamligini hosil qiluvchi ishonchdir. Chunki bu xabar ikkinchi va uchinchi tabaqalarda mutavotir tarzda rivoyat qilingan bo'lsa-da, uning asl manbai e'tibori bilan odatda yolg'on bo'lish ehtimoli haqidagi shubha saqlanib qoladi. Zero, uning dastlabki roviylari oz sonli kishilar bo'lgan. Holbuki, yaqin ilm faqat yolg'ondan ma'sum zotga uzluksiz ravishda bog'langan va uzilish ehtimoli qolmagan holatdagina sobit bo'ladi. Bu yerda esa asl sanad jihatidan uzilish ehtimoli haqidagi shubha saqlanib qolgan. Shu sababli u yaqin ilmning sobit bo'lishiga monelik qiladi.

Buni yana quyidagicha tushuntirish mumkin: bizda bunday rivoyat orqali hosil bo'ladigan ilm, uzilish ehtimoli haqidagi shubhani chuqur mulohaza qilishdan oldingi holatda yuzaga keladi. Ammo ushbu shubha haqida tafakkur qilinganda, bu ilmda ma'lum darajada zaiflashish yuz beradi. Demak, ma'lum bo'ladiki, bu "ilmut-tuma'nina", ya'ni qalbni taskinlantiruvchi ilm turidir. Asli ham, keyingi tabaqalari ham mutavotir bo'lgan xabar orqali hosil bo'ladigan ilm esa, aksincha, unga chuqurroq nazar tashlangan sari yanada kuchayib boradi. Avval ham bayon qilganimizdek, darajalar orasidagi tafovut qiyoslash orqali ayon bo'ladi. Birinchi qismdan yuqoriroq boshqa daraja bo'lmagani uchun, u orqali sobit bo'ladigan narsa zaruriy ilm ekanini bildik. Ikkinchi qismdan esa yuqoriroq yana bir daraja mavjud bo'lgani sababli, u orqali sobit bo'ladigan narsa "ilmut-tuma'nina" ekanini angladik.[10, 81.b.]

Shunga qaramay, bu turdagi xabar bilan Qur'on yoki qat'iy nassga qo'shimcha hukm kiritish joiz hisoblanadi. Chunki ulamolarning bu xabarni qabul qilib, unga amal qilganlari uning shar'an hujjat ekaniga dalolat qiladi. Darhaqiqat, ikkinchi va uchinchi asr ulamolarining ijmosi shar'iy jihatdan vojib dalil sanaladi. Shu sababli biz bu xabar vositasida nassga ziyoda qilishni joiz deb bildik. Biroq, shunday bo'lsa-da, unda uzilish ehtimolini tasavvur qilishga oid shubha saqlanib qoladi. Shu bois uni inkor qilgan kishi kofir bo'lmaydi. [10, 82.b.]

Mashhur hadisni inkor qilishning hukmi

Mashhur hadisni inkor qilgan kishi kofir bo'lmaydi, chunki u Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan bevosita qat'iy (mutavotir) tarzda eshitilgan xabarni inkor qilmagan bo'ladi. Ulamolarni xato qilgan deb hisoblash kufr emas, balki bid'at yoki adashish hisoblanadi.

Iso ibn Abon inkorni quyidagicha tasnif qilgan: birinchisi, adashtiruvchi inkor (takfirga olib boradigan holat) — rajm hadisi kabi, ummatning ilk avlodlaridan boshlab qabul qilingan rivoyatlarni inkor etish. Ikkinchisi, gunoh ehtimoli bor inkor — masalan, mahsi ustiga mash tortish hadisi kabi, sahobalar orasidagi ixtilof tufayli. Uchinchisi, faqat xato deb baholanadigan holat — fiqhiy ixtilof mavjud masalalar, bunda inkor qilgan shaxs xato qilgan hisoblanadi, xolos. [7, 356.b. 10, 83.b.]

Xulosa. Hanafiylar va muhaddislar o'rtasidagi asosiy xilof mashhur hadisning tasnifida namoyon bo'ladi: muhaddislar uni ohod hadislarning bir turi sifatida ko'radilar, hanafiylar esa uni mutavotir va ohod o'rtasidagi mustaqil daraja deb hisoblaydilar. Hanafiylar nazarida mashhur hadis Qur'on hukmini cheklashi va unga qo'shimcha kiritishi mumkin; bu esa ularning Allohning kitobiga ziyoda qilish tamoyiliga asoslanadi. Shu sababli, usul ulamolari istilohlarini

to‘g‘ri tushunish g‘oyat muhim bo‘lib, aks holda turli mazhablar o‘rtasidagi farqlar noto‘g‘ri talqin qilinadi.

Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ikki maktab o‘rtasidagi farq faqat istilohiy nomlanishda emas, balki hadisdan hukm chiqarish metodologiyasining o‘zagida yotadi. Hanafiylarning mashhur hadisga mustaqil daraja berishi amalda Qur‘on nassiga ziyoda qilish va uni taxsis etish imkonini bergan; bu esa fiqhiy ijtihodda muhim metodologik vosita bo‘lib xizmat qilgan. Muhaddislarning mashhurni ohod ichiga kiritishi esa hadis tanqidi nuqtai nazaridan raviylar soniga asoslangan qat’iy mezonni saqlab qolishga xizmat qilgan. Shu tariqa, ushbu tadqiqot ikkala maktabning ham o‘z ichki mantig’iga ega bo‘lgan mustaqil metodologik tizim ekanini ilmiy asosda isbotlaydi va ularni bir-biri bilan solishtirmasdan, o‘z kontekstida tushunish zarurligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. البخاري، أبو عبد الله محمد بن إسماعيل. صحيح البخاري. — ط. الثانية. — القاهرة: جمعية المكنز الإسلامي ـ ٢٠١٨م. — ١٦٢٥ ص.
2. صحيح مسلم: أبي الحسين مسلم بن الحجاج القشيري – القاهرة: جمعية المكنز الإسلامي — ط. الثانية. — ٢٠١٨م. — ١٣٠٠ ص.
3. أبو داود، سليمان بن الأشعث السجستاني. سنن أبي داود. — ط. الثانية. — القاهرة: جمعية المكنز الإسلامي، ٢٠١٨م—٩١٠ ص.
4. عتر، نور الدين. منهج النقد في علوم الحديث. — دمشق: دار المنهاج القويم، ٢٠٢٣. — ص. ٤٤٨
5. خليفة، كيلاني محمد. منهج الحنفية في نقد الحديث بين النظرية والتطبيق. — القاهرة: دار السلام، ٢٠١٠.— ٦٢٤ ص
6. ابن حجر العسقلاني، أحمد بن علي. نزهة النظر في توضيح نخبة الفكر في مصطلح أهل الأثر— دمشق: دار المنهاج القويم، ٢٠١٩. ١٧٤ ص.
7. البزدوي، علي بن محمد. أصول البزدوي: كنز الوصول إلى معرفة الأصول. — ط. الثانية. — المدينة المنورة: دار السراج، ٢٠١٦م — ٨٣٧ ص.
8. النسفي، أبو البركات حافظ الدين الحنفي. متن المنار في أصول الفقه. — دار سعد الدين، ٢٠١٠م — ٢٣٨ ص.
9. ابن ملك، عبد اللطيف بن عبد العزيز بن أمين الدين. شرح ابن ملك على منار الأنوار. — ج. الثاني. — دار السلطان للنشر / دار المنة ناشرون، ٢٠٢٤م. — ٥٢٢ ص.
10. السرخسي، أبو بكر محمد بن أحمد بن أبي سهل الحنفي. أصول السرخسي المسمى: تمهيد الفصول في الأصول. — ج. الثاني. — الكويت: / ٢٠٢٢م — ٥٧٠ ص.
11. ابن ماجه، محمد ابن يزيد. سنن ابن ماجه. — ط. الثانية. — القاهرة: جمعية المكنز الإسلامي ـ ٢٠١٨م. — ٦٦٨ ص.